

MAQSUD SHAYXZODA SHE'RLARIDA VATAN MADHI

Ikramova Feruza Xayrullayevna

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini qidiruv
va loyihalash kafedrasи dotsenti
Sanjarova Marjona Sanjar qizi*

Toshkent Davlat Transport Universiteti YMSH-6 guruhi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda she'riyatida badiiylik , o'z firlarini she'riy misralarda aks ettirilishi tarzi hamda ijodkor haqida o'zbek adabiyoti dalg'alarida o'zning o'rniغا ega bo'lgan mashhur shoirlarning fikr mulohazalari haqida keltirib o'tilgn.

Kalit so`zlar: Maqsud Shayxzoda, she'riyat, Shukrullo, Said Ahmad, fidokorlik,

Abstract: In this article, the artistry of Maqsud Shaykhzada's poetry, the way of expressing his emotions in poetic verses, and the opinions of famous poets who have their place in the waves of Uzbek literature about the creator are mentioned.

Keywords: Maqsud Sheikhzadeh, poetry, Shukrulla, Said Ahmed, sacrifice

Maqsud Shayxzoda— shoir, dramaturg, adabiyotshunos, tarjimon, pedagog.O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1964).Bokudagi dorilmuallimni tugatgan (1925). 1927 yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida hibsga olinib, 1928 yilda fevralda Toshkentga surgun qilingan. Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa muddat o'qigani (1928)dan keyin "Sharq haqiqati"(1929-32), "Qizil O'zbekiston", "Yosh lelinchi" gazetalari(1932), "Guliston" jurnali (1933–34) taxririylarida xizmat qilgan.Boku pedagogika institutini tugatgan (1934).

Shoирning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlanib, "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Urush yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridan oq jang qahramonlarini ulug'lovchi. Front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi «Kurash nechun» (1941). «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» nashr etildi.

"O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", "Chorak asr devoni" kabi she'riy to'plamlarida, urushdan keyingi yillarda qatag'on bo'lgan shoir, totuvlik uchun kurash, Vatanga fidokorlikni kuyladi.

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozibgina qolmay, adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e'lon qilgan Sh. umrining so'nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug'ullanib keldi.

Yaxshi bilasiz, ziyo degani nur, yorug‘lik, oydinlik demakdir. Haqiqatan ham ziyyolilarimiz elga bilim, ma’rifat, madaniyat ulashish, ta’lim-tarbiya berishdek savob ishlarga da’vat etilgan...” Bu so‘z bilan go‘yo sehrlangan majlis zalida o‘tirganlar gulduros qarsaklar chalib yuborishgan edi. U qisqa hayot kechirdi – 60 yoshga ham to‘lmay, 1967-yil 19-fevral kuni uzoq vaqt davom etgan xastalikdan so‘ng olamdan ko‘z yumdi. Shayxzoda ijodi eng gullagan paytda, shiraga to‘lgan vaqtida olamdan ketdi.

Maqsud Shayxzoda bilan birga saboq olgan yozuvchi va tarjimon Mirzakalon Ismoiliy o‘z xotiralarida shunday yozadi:

“Maqsud o‘zbek tilida ozariy lahjada gapirardi. Ozar va turk so‘zlaridan faol foydalanardi. U chuqur savodi va insoniy fazilatlari uchun talabalar orasida katta hurmat qozongandi. Maqsud havas va ehtirom bilan o‘zbek tili, tarixi, sharq madaniyatini o‘rgangan edi. Darslar tugashi bilan ertangi kunga tayyorlana boshlar, kitob o‘qir, konsept yozar, keyingi mavzular bilan bog‘liq kitoblarni titkilar, muallimlarga savollar hozirlardi. U savollarni o‘qituvchilarga yozma tarzda berar, bu esa domlamiz Muxtor Avezovga maroqli edi. Maqsud nima uchun savollarini yozma tarzda berishining sababini bilgach, domlamiz lol qolgandi. Maqsud muallim savolning javobini bilmasa, boshqa talabalar qarshisida noqulay vaziyatda qolmasin uchun savollarni yozma tarzda berarkan.”

Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari dunyoning bir necha tillariga puxta o‘girilgan.

XX asr o‘zbek adabiyotining rivojiga salmoqli hissa qushgan ulug‘ adib, shoir, olim, jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek shoir haqida shunday deudi:

Shayxzoda she’rlarining shakli rang-barangdir.U ruboiy (falsafiy mazmundagi to’rtlik) ballada poema va lirik she’rlar shaklidqan foydalaniladi.O‘z fikrlarini ifoda etishi tarzi Mayakovskiyning tsviriy vositalariga o‘xshab ketadi.U ham Mayakovskiy singari porloq va kutilmagan obrazlar yaratgan.

Yashadim 30 yil bunda chamasi Bu yerda tug‘ilgan G‘afur va Oybek, Umrimning boshlang‘ich mavsumlarida Meni ardoqlashdi quchib og‘adek, Inilik ko‘rsatdim ta’zimlarimda... Biri – she’rimizning o‘tli yuragi, Biri – nasr uyining baland tiragi Ochdilar uy bilan qalb eshiklarin, Ayamay o‘git va mezbonliklarin. Yigitcha edim men havaskor, sodda, Bo‘ldim oqibatda shoir Shayxzoda!..

Ko‘rkam adabiyotning bosh vazifalaridan biri ezgu so‘z orqali millatlarni, xalqlarni, davlatlarni tinchlik, mehrparvarlik, oqibatdoshlik yo‘lida birlashtirishdir.

Xo‘p tingladik oq ko‘ngilli qora Robsonning
Dushmanlarga larza solgan dovul – na’rasin,
Va angladik tarjimasiz mard Aragonning

Baytlarida ma'nolarning asl-sarasin...
Sulh istadik koinotning chiroyi uchun,
Sulh istadik saodatning saroyi uchun,
Xalqlararo salom-alik odat bo'lsin deb,
Tuproqlarning tomiriga quvvat to'lsin deb.
Tinchlik, dedik!
Tinchlik, deymiz!
Va degusimiz! Tinchlik deysan!
Tinchlik deyman! Tinchlik deymiz biz!

L.N.Tolstoyning shunday hikmatli gapi bor: "So'z – buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so'z bilan odamlarni birlashtirish, so'z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko'rmas qilib yuborish mumkin, so'z bilan mehr qozonish, so'z bilan nafrat va adovatga yo'liqish mumkin. Odamlarni bir-biridan ajratadigan so'zni aytishdan saqlan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y
2. 5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
3. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoир, T., 1972 y. - 179 b.
4. Shayxzoda Maksud. Atokli xalg shoирi. „Lenin uchkuni—, 1956, 18 may (o'zbekcha)
5. S. Mirvaliyev, R. Shokirova "O'zbek adiblari" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti T., 2016.